



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 23 - noyabr

203-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining Muborak magistral gaz quvurlari boshqarmasiga qarashli Sherobod tumani hududida joylashgan yer maydonlarini yo‘qlama (inventarizatsiya) dan o‘tkazish ishlari natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-avgustdagi “Davlat kadastrlari yagona tizimiga har oyda kadastr ma’lumotlarini taqdim etib borish holati to‘g‘risida”gi PQ-4427-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-avgustdagi majlis bayonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Yetkazib berish quvurlari davlat kadastr obyektlarini raqamlashtirish ishlarini yakunlash va Davlat kadastrlari yagona tizimini ma’lumotlar bazasiga 2021-yilda kiritishni ta’minlash tarmoq jadvali”ga hamda “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining Muborak magistral gaz quvurlari boshqarmasi murojaatiga ko‘ra Muborak magistral gaz quvurlari boshqarmasi yer maydonlarini yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish natijalari bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining Muborak magistral gaz quvurlari boshqarmasiga qarashli yer maydonlarini yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish to‘g‘risidagi yo‘qlama natijalari ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hududidan o‘tgan “O‘ztransgaz” AJ ning Muborak gaz quvurlari boshqarmasiga qarashli yer maydonlarida ularning xavfsizligini ta’minlash, normal holatda ekspluatatsiya qilish va gaz quvurlari hamda obyektlarida har xil buzilishlar va zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida:

gaz o‘tkazgich quvurlarining yonidan ikki taraflama 50 metrdan muhofaza mintaqasi shartli chiziq orqali belgilansin;

yer ustki qismida joylashgan, Muborak gaz quvurlari boshqarmasiga qarashli barcha obyektlar (WKC, UZRG, KU va boshqalar) uchun har tarafdin 100 metrdan muhofaza mintaqasi belgilansin;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan turar-joy massivlari, sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalarini va boshqa obyektlarni loyihalashtirishda qo‘llaniladigan “Magistral gaz quvurlari” qurilish me‘yori va qoidalarini (QMQ 2.05.97)ga qat’iy rioya etish, shuningdek, gaz o‘tkazgich quvurlarining yonidan ikki taraflama 50 metrlik muhofaza mintaqasidagi yerdan foydalanuvchilar “Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalarini”ga qat’iy rioya etishlari shartligi va ushbu qoidani buzganlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘lishlari mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

3. Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (A.Abduraxmonov) magistral gaz quvurlari muhofaza hududlarida noqonuniy qurilmalar qurilmasligi, o‘zboshimchalik bilan egallab olish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) “O‘ztransgaz” AJ ning Muborak gaz quvurlari boshqarmasiga tegishli yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
203-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

“O‘ztransgaz” AJning Muborak gaz quvurlari boshqarmasiga qarashli Sherobod tumani hududidagi yerdan foydalanuvchilar va boshqa obyektlar yer maydonlarini yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish natijalari

T/r	Yerdan foydalanuvchilar nomlari	Trassa uzunligi metr,/ trassa kengligi mm.	Jami maydon	Shu jumladan:											
				Haydaladigan yerlar		Bog‘zorlar	Uzumzorlar	Tutzorlar	Mevali ko‘chatzorlar	Bo‘z yerlar	Yaylovlar	Qishloq xo‘jalik yerlari		Tomorqa yerlar	
				Sug‘oriladigan	lalmi							Jami	Sh.j. suvli	Jami	sh.j.dan daladagi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Talashkon otvod D-320 mm															
1	Talashkon GRS		0,06									0			
2	Kran uzal		0,01									0			
3	Tuman zaxirasi	1372	16,67									0			
	Jami otvod bo‘yicha	1372	16,74	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
												0			
Sherobod otvod 320 mm															
1	Sherobod GRS		0,17									0			
2	Avtoyul	40	0,4									0			
3	Kran Uzal		0,01									0			
4	Tuman zaxirasi	1380	14,9									0			
	Jami otvod bo‘yicha	1420	15,52	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

MG Sho'rtan-Sherobod D-720 mm															
1	Tuman zaxirasi (UMG yerlari)	30198	303,0								204,8	204,8			
	Jami trassa bo'yicha	30198	303,0	0	0	0	0	0	0	0	204,8	204,8	0	0	0
	Jami tuman bo'yicha	32990	335,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	204,8	204,8	0,0	0,0	0,0

Jadval davomi

T/r	Yerdan foydalanuvchilar nomlari	Shu jumladan:												Yo'llar, mollarni haydab o'tuvchi dala yo'llari	Qurlishlar, ko'chalar, saroy va maydonlar	Boshqa yerlar
		Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	Jami o'rmonzorlar	shundan		Suv osti yerlari					Kanallar, kollektorlar va zovurlar					
				ihota daraxtzorlari	terakzorlar	Jami	Daryo va soyliklar	Ko'llar	Suv omborlari va suv havzalari							
17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28					
Talashkon otvod D-320 mm																
1	Talashkon GRS														0,06	
2	Kran uzal														0,01	
3	Tuman zaxirasi												0,29	0,01	16,40	
	Jami otvod bo'yicha	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,29	0,08	16,4	
Sherobod otvod 320 mm																
1	Sherobod GRS														0,17	
2	Avtoyul												0,4			
3	Kran Uzel													0,01		
4	Tuman zaxirasi					0,4	0,4						0,6		13,9	
	Jami otvod bo'yicha	0	0	0	0	0,4	0,4	0	0	0	0	0	1	0,18	13,9	

MG Sho'rtan-Sherobod D-720 mm													
1	Tuman zaxirasi (UMG yerlari)					0,4	0,4				2,8		95,0
	Jami trassa bo'yicha	0	0	0	0	0,4	0,4	0	0	0	2,8	0	95,0
	Jami tuman bo'yicha	0,0	0,0	0,0	0,0	0,8	0,8	0,0	0,0	0,0	4,1	0,3	125,3